

POLIMER KOMPOZITSION MATERIALLARNING TEPLOFIZIK VA ELEKTRIK XOSSALARI

REJA


1. Polimer kompozitsion materiallarning teplofizik xosslari.
2. Polimer kompozitsion materiallarning elektrik xossalari.

1. Polimerli kompozitsion materiallarning teplofizik xossalari

Injenerlik amaliyotida ananaviy metall va qotishmalar o`rniga polimerlardan foydalanish tajribasi kundan-kunga ortib bormoqda. Bunga asosiy sabab bo`lib polimerli materiallar massasining nisbatan kichikligi, ekspluatatsion xossalarining ancha yuqoriligi, narxining pastligi, yuqori texnologikligi, loyixalash imkoniyatining yaxshiligi kabi xossalari polimerlar asosidagi materiallarni ananaviy konstruksion metall materiallardan ko`pgina xollarda yuqori bo`lishini ta`minlamoqda. Ammo mashinaning aniq bir detal yoki birikmasi bilan bog`liq aniq bir xolat uchun polimer materialini to`g`ri tanlash muammosi konstruktor uchun juda qiyin masala hisoblanadi. Bu polimer materiallarining konstruksion materiallarga nisbatan xossa ko`rsatkichlarining bir-biridan bir necha marotaba emas balki bir necha o`nlab marotaba farq qilishi bilan bog`liqdir.

Masalan temperaturasining ortishi bilan polimer materiallarning issiqlikdan kengayishi boshqa konstruksion materiallarga nisbatan ancha yuqoridir. Bu ko`rsatkich metallarga nisbatan 8 va undan ham ortiqni tashkil etadi(1-rasmga qarang).

Issiqlikdan kengayish koeffitsientining kattaligi pribor va mashinalarning yuqori aniqlik talab etiladigan detallarini tayyorlash vazifasini murakkablashtirib yuboradi. Masalan bosim ostida quyib olinadigan polimerli tishli g`ildiraklarning dopusklari 2-3 mkm atrofida bo`lganligi sababli issiqlikdan chiziqli kengayish koeffitsienti uncha katta bo`lmasligi va o`zgarmas bo`lishi kerak bo`ladi.



1-rasm. Materiallarning issiqlikdan kengayish ko`rsatkichlari:
 1- polimer materiallar; 2-yog'och; 3-beton; 4-metallar; 5-shisha;
 6-qimmatbaho toshlar; 7- inson tishi.

Polimer buyumlar ishlab chiqarishda, ayniqsa bosim ostida quyish usulida, quymaning sovush jarayonidagi katta va notekis cho`kish metallardan buyumlar olish darajasidagi aniqlikda detal tayyorlashda katta qiyinchiliklar tug`diradi. Bundan tashqari, murakkab shaklli buyumlar quyishda cho`kishning farqi buyum shaklining buzilishiga (qiyshayib ketishiga) olib keladi. SHu bilan birga ichki qoldiq kuchlanishlar va boshqa deformatsiyalar yuzaga kelishiga olib keladi. Bu holat aniq detallar tayyorlashda mexanik ishlov berish jarayonida ham uzining salbiy ta`sirini ko`rsatadi. SHunday bo`lishiga qaramasdan formal`degid asosidagi poliamidlar va sopolimerlardan tishli g`ildiraklar, shesternyalar, sirpanish podshipniklari, vtulkalar, kulachoklar kabi detallar tayyorlashda keng qo`llanilishi konstruktsion plastmassalarning o`lchamlari yuqori aniqlikdagi detallar tayyorlashda imkoniyatlari yuqori ekanligini ko`rsatmoqda.


Hozirgi kunda texnikada mineral to`ldiruvchili formal`degidli va epoksidli smolalari injener-konstruktorlar tomonidan qo`llanilib kelayotgan o`lchamlari bo`yicha eng turg'un materiallar hisoblanadi. SHisha tolalari bilan to`ldirilgan formal`degidli plastmassalarning qo`llanilishi yuqori aniqlikdagi detallar tayyorlash ko`lamini ancha kengayishiga olib keldi. Bu materiallarning issiqlikdan kengayish koeffitsienti engil metallar qotishmalarinikiga yaqin turadi. Puxtalovchilar bilan to`ldirilgan politetraforetilen va polikarbonatlar texnikada

muftalar, zichlagichlar, sirpanish podshipniklari, yo`naltiruvchilar va kulachoklar tayyorlashda keng qo`llaniladi.

Polimerli kompozitsion materiallardan tayyorlanadigan buyumlar turli ishlatish sharoitlarida o`zining ishga yaroqliligini saqlay oladigan darajada teplofizik xossalarga ega bo`lishlari kerak. Masalan ishqalanish sharoitida ishlovchi detallarning materialiy yaxshi issiqlik va temperatura o`tkazuvchanligiga, hamda etarli darajadagi issiqbardoshlikka, mumkin bo`lgan minimal' va turg'un hajmiy va chiziqli kengayish koeffitsientlariga ega bo`lishlari kerak. Materiallarning teplofizik xossalari ishqalanish zonasida to`planib qolishi mumkin bo`lgan issiqlikni chiqib ketishi va tarqab ketishini ta'minlaydi va bu holat detalni ortiqcha qizib ketishdan va natijada ularning mexanik xossalarini pastlab ketishidan saqlaydi.

Polimerli kompozitsion materiallarning issiqlikdan kengayishi.

Materiallarning qizish jarayonida energiyaning ortishi natijasida atomlar va molekularning tebranish chastotasi va atomlararo masofa ortib boradi. 2-rasmda ikki molekular orasidagi masofaga bog`liq xoldagi o`zarota'sir ifodalangan.



2-rasm. Jismlarning molekulararo energiyasining masofaga bog`liq holdagi issiqlikdan kengayishini ifodalovchi simmetrik (a) va asimmetrik (b) bog`lanishlar egri chiziqlari.

Polimerlarning termik kengayishini ularning tarkibiga mos to`ldiruvchini kiritish orqali ancha kamaytirish mumkin. Bu orqali toza polimerga nisbatan

chiziqli kengayishi 4-5 marta kam bo'lgan polimerli kompozitsion material olish mumkin.

Bir yo'nalishli to'ldiruvchiga ega anizotrop PKMlar uchun ko'ndalang yo'nalishdagi chiziqli termik kengayish koeffitsientini etarli darajada aniq hisoblab topish mumkin. Ba'zi PKMlar uchun chiziqli kengayish koeffitsientlarining tajriba yo'li bilan olingan qiymatlari maxsus jadvallarda keltirilgan.

YUqoridagilar asosida quytsidagi xulosalarni berish mumkin.

1. Mos to'ldiruvchini tanlash orqali polimerning issiqlikdan kengayishini ancha kamaytirish mumkin.

2. Eng ko'p samaraga tolasimon va matoli to'ldiruvchilarni qo'llashda erishiladi, kamroq samaraga esa, kukunsimon to'ldiruvchilardan foydalanganda erishiladi.

3. PTFE turidagi polimerlarning issiqlik ta'siriga sezgirliigi boshfa turdagi polimerlardan keskin farq qiladi. Buning sababi xali aniqlangani yshq.

PKM larning issiqlik o'tkazuvchanligi.


Konstruktsion materiallarning issiqlik o'tkazuvchanligi mashina va mexanizmlarning ishchi holatini belgilovchi omil hisoblanadi. Bu holat ayniqsa, yuqori solishtirma yuklanishlarda va temperaturalarda ishlovchi mexanizmlar uchun ko'proq tegishlidir. Boshqa teplofizik xossalari bilan bir qatorda PKMlarning issiqlik o'tkazuvchanligi ularning tribotexnik xossalariga to'g'ridan to'g'ri ta'sir etadi va ishqalanish va eyilish sharoitida ishlovchi mexanizmlarda muhim rol o'ynaydi.

PKMlarning issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsienti ishqalanish zonasidan issiqlikni chiqarib yuborilishini ta'minlaydi va natijada polimer detallarining ortiqcha qizib ketishiga yo'l qo'ymaydi va ularning mexanik xossalarini pastlab ketishining oldini oladi. Konstruktsion plastmassalar metall va uglerodli materiallarning issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsientiga nisbatan 1-2 o'nlik darajasida kichik qiymatga ega bo'ladi. SHuning uchun PKM tarkibiga dispers metall kukunlari yoki uglerodli tolalarni kiritish orqali ularning issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsientini sezilarli darajada orttirish mumkin.

Tajribalardan olingan natijalar ko'rsatadiki, polimer tarkibiga mos to'ldiruvchini kiritish orqali kerakli issiqlik o'tkazish ko'rsatkichiga ega bo'lgan PKM olish mumkin bo'ladi.

PKMlarning issiqlik sig'imi.

Temperaturaning ortishi bilan barcha turdagi materiallarning issiqlik sig'imi ortib boradi. To'ldiruvchilarning qo'shilishi oqibatida kompozitsion materiallarning issiqlik sig'imi kamayib boradi. Eng kam issiqlik sig'imiga KVN-3 materiali ega. Bu material tarkibida metall to'ldiruvchilari ko'p miqdorni tashkil etadi. SHuning uchun metall to'ldiruvchilar miqdorining ortishi bilan PKMlarning issiqlik sig'imi kamayib borishini kuzatish mumkin. Uglarod tolasini qo'shish bilan esa, PKMlarning nisbiy issiqlik sig'imi ortadi.



3-rasm. Nisbiy issiqlik sig'mlarining temperaturaga bog'liqligi.
1- PTFE; 2 – Kriolon-5; 3 - Kriolon-3; 4 – KVN-3

2. PKMlarning elektrik xossalari.

Polimerlarning katta qismi elektrik izolyatorlar hisoblanadi. Ularning elektr qarshiligi 10^{11} dan 10^{14} $\text{Om} \cdot \text{m}$. gacha etadi. Ammo polimerlarni elektr o'tkazuvchi material turiga tarkibiga texnik uglarod, grafit, uglegrafitli tolalar yoki dispers kukunlarini to'ldiruvchi sifatida qo'shish orqali o'tkazib olish mumkin.

Masalan uglerodli to'ldiruvchilarni qo'shish orqali solishtirma elektr qarshiligi 10^{-3} Om · m. ga teng, metall to'ldiruvchilarni qo'shish orqali esa, solishtirma elektr qarshiligi 10^{-6} Om · m. ga teng bo'lishiga erishish mumkin.

Birinchi marta elektr o'tkazuvchi polimer materiali grafit yoki texnik uglerod to'ldiruvchi qo'shilgan fenol'formal'degidli smolalardan olingan. Ular rezistorlar tayyorlashda keng qo'llanilgan.

Elektr o'tkazuvchili to'ldiruvchining PKM tarkibida joylashishi va ularning elektr o'tkazuvchanlik mexanizmi.

Matritsa tarkibida to'ldiruvchi turli strukturalar hosil qiladi: matritsali, statistik, yo'naltirilgan va tekis yuzali. Bundan tashqari, to'ldiruvchining zarralari fazoda polimer qobig'i ostida joylashgan bo'lishi mumkin.

Agar to'ldiruvchining har bir zarrasi ikkitadan kam bo'lmagan zarra bilan kontaktga ega bo'lsa PKM elektr o'tkazuvchiga aylanib qoladi. Agar bu kontaktlar ikkitadan kam bo'lsa, PKM izolyatorligini saqlaydi. Chunki zarralar ikkitadan kontaktga ega bo'lsa, ular ma'lum yo'nalish bo'yicha kontaktdagi zarralar zarjirini hosil qiladi va shu yo'nalishda PKM elektr o'tkazuvchi bo'lib qoladi. Shuning uchun PKMning elektr o'tkazuvchanlik sharti $M \geq 2$ bo'ladi.

PKMlarning elektr o'tkazuvchanlik mexanizmi to'ldiruvchining turiga, uning tarkibdagi miqdoriga, oksid plenkasining mavjudligiga, to'ldiruvchining dispers xolatiga va boshqalarga bog'liq bo'ladi.

PKMlarning elektr o'tkazuvchanligining ikki xil nazariyasi mavjud:

1. Elektr zaryadining oqimi zarralarning kontakt zanjiri orqali boradi.
2. Elektr zaryadining oqimi zarralar orasidagi zazor orqali oqib o'tuvchi elektronlar emissiyasi natijasida sodir bo'ladi. Bu holat zazorning katta kichikligiga, tok kuchlanishiga, temperaturaga bog'liq bo'ladi.

Metall to'ldiruvchili PKMlar turli qatlamlar, elimlar prokladkalar sifatida elektron texnikada keng qo'llaniladi.

Elektronikada ko'proq oltin va kumushdan olingan metall zarralaridan foydalaniladi.


Elektron priborlarni montaj qilishda metall to'ldiruvchili elimlardan foydalaniladi. Kosmik va xarbiy texnikada tilladan foydalaniladi. Ba'zan nikel'dan va tilla suvi qoplangan nikel' va mis zarralaridan foydalaniladi. Elim sifatida ko'proq epoksid smolasidan foydalaniladi.

Elektr o'tkazuvchili PKMlar texnikada va meditsinada keng qo'llaniladi va ularning ko'lami kundan-kunga ortib bormoqda. Eng muxim va keng ko'lamli qo'llaniladigan va statik zaryadlarni tarqatish xususiyatiga ega bo'lgan buyumlar tayyorlash ko'p uchraydi. Tok o'tkazuvchi xossalari PKMlar kabellarning qobiqlarini tayyorlashda, ekranli kabellar tayyorlashda, elektron detallarni montaj qilishda keng qo'llaniladi.

SHu bilan birga elektr priborlarini turli zaryadlardan himoya qilishda ham foydalaniladi. Chunki ular turli pojarlar, portlashlar kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Hozirgi kunda PKMlardan insonlarni turli zararli ta'sirlardan himoya qiluvchi kiyim kechaklar ham tayyorlanmoqda.

Termoplastik to'ldiruvchilar. Bunda polimer matritsa (bog'lovchi) sifatida turli termoplastlar qo'llaniladi. Polimerli kompozitsion materialning mustahkamligini oshirish uchun to'ldiruvchi sifatida shisha tolasidan, asbestdan, organik tolalardan va matolardan foydalaniladi. Tolali to'ldiruvchilar polimerda yuklanishni o'ziga qabul qiluvchi sinch sifatida xizmat qiladi va uning mustahkamligini oshiradi.

Sanoat masshtabida maydalangan shisha tolali to'ldiruvchi bilan puxtalantirilgan poliamidlar va polikarbonatlardan keng foydalaniladi. To'ldiruvchi yordamida puxtalantirilmagan polimerlarga nisbatan ular ancha yuqori mustahkamlikka ega bo'ladi ($\sigma_v = 90 \dots 149 \text{ MPa}$; $\sigma_{sj} = 110 \dots 140 \text{ MPa}$; $\sigma_{izg} = 150 \dots 220 \text{ MPa}$). Bundan tashqari yuqori issiqbardoshlikka, toliqishga qarshilikka va eyilishga chidamlilikka, hamda kichik oquvchanlikka ega bo'ladi (rasmga qarang). Issiqbardoshligi bo'yicha ishga yaroqlilik temperaturalar oraligi 60 dan 180°S gacha.



1-rasm. Poliamidli (1,2) va polikarbonatli (3,4) to'ldiruvchisiz (1,3) va to'ldiruvchili (2,4) polimerlarning charchashga qarshilik ko'rsatkichlari.

Sintetik tola ko'rinishidagi (propilen tolasasi, kapron, lavsan, vinol kabilar) to'ldiruvchili termoplastlar istiqbolli hisoblanadilar. Bunday tolalar kimyoviy tabiati bo'yicha bog'lovchi materialiga yaqin turadi va shuning uchun ham ular yuqori mustahkamlik ta'minlanadi (tola va matritsa birgalikda ishlaydi). Tolali termoplastlarning oquvchanligi tolasizga nisbatan 5 martagacha kamayadi, muddatli mustahkamligi esa o'nlab marta ortib ketadi. Tolali termoplastlardan podshipniklar, tishli g'ildiraklar, trubalar, ventillar, agressiv (tajavvuzkor) muhitlar uchun idishlar va boshqalar tayyorlanadi.

Termoreaktiv plastmassalar. Bu turdagi polimerli kompozitsion materiallarning bog'lovchi moddasi sifatida termoreaktiv smolalardan foydalaniladi. Ularga, odatda, qo'yilgan talabga qarab plastifikatorlar, otverditellar, tezlatgichlar yoki sekinlatgichlar, erituvchilar qo'shiladi. Bog'lovchiga qo'yiladigan asosiy talablarga elimlash xossasining (adzeziya) yuqoriligi, issiqbardoshligi, kimyoviy turg'unligi va elektr izolyatsiyalovchi xossalarning yuqoriligi, qayta ishlash texnologiyasining soddaligi, cho'kishining kamligi, zaxarli emasligi kabilar kiradi.

Plastmassa ishlab chiqarishda fenolformaldegidli, kremniyorganik, epoksid smolasi, poliefirlar va uning turli modifikatsiyalari keng qo'llaniladi. Bularning ichida epoksid smolasi to'ldiruvchilar bilan nisbatan yuqori elimlanish xossasiga ega bo'lib, mexanik xossalari yuqori bo'lgan PKMlar olish imkonini beradi. Kremnikorganik to'ldiruvchili shisha tolali plastiklarning uzoq vaqt davomida qizdirilishi natijasidagi issiqbardoshligi 260...370°S ni, fenolformaldegidli to'ldiruvchilisi 260°S ni, epoksid smolalisi 200°Sni, poliamidlisi 280...350°Sni tashkil etadi. Yuqoridagilar asosidagi plastmassalardan katta o'lchamli buyumlar olish mumkin.

Tolali to'ldiruvchili plastmassalar. Bu guruxdagi plastmassalarga voloknitlar, asbotolalilar, shisha tolalilarni kiritish mumkin.

Voloknit deganda paxtaning chiqindi tolasini fenolformaldegidli bog'lovchi bilan to'yintirib olingan material tushuniladi. Boshqa press-poroshoklardan olingan tolalarga qaraganda bular ancha yuqori zarbiy qovushoqlikka ega bo'ladi. SHuning uchun ular egilishga va buralishga ishlovchi umumiy texnik detallar tayyorlashda qo'llaniladi (dastaklar, ustunlar, qopqoqlar, yo'naltiruvchi vtulkalar, shkivlar, maxoviklar va shu kabilar).

Asbovoloknitlar tarkibiga asbestli to'ldiruvchilar kiradi. Bog'lovchi bo'lib esa asosan fenolformaldegid smolasi xizmat qiladi. Asbotolalilarning afzal tomoni bo'lib yuqori issiqbardoshligi (200°S dan ortiq), kislotali muhitga chidamliligi va yuqori friksion xossasi kabilar hisoblanadi. SHuning uchun asbotolali PKMlardan tormoz qurilmasi materiali, koslotabardosh apparatlar, vannalar, trubalar kabilar olinadi.

SHisha tolalilar bu sintetik smola asosidagi bog'lovchi va shisha tolali to'ldiruvchili polimerli kompozitsion materialdir. Bunday materiallarning to'ldiruvchilari bo'lib uzluksiz va qisqa shisha tolalari xizmat qiladi.


SHisha tolaning mustahkamligi tolasini diametrining kamayishi bilan keskin ortib boradi. Amaliy maqsadlarda tolaning diametri 5...20 mkm (mustahkamlik ko'rsatkichlari $\sigma_r = 600...3800 \text{ MPa}$ va $\varepsilon = 2...3,5 \%$ ga teng) olinadi.

Tolalari tartibsiz joylashgan materiallar. SHisha tolali PKMlarning bu turi to'ldiruvchining uncha uzun bo'lmagan kalta tolalari tartibsiz joylashgan materialdir. Bu holat PKM lardan metall armaturali murakkab shakldagi detallar olish imkonini beradi. Olingan material press-poroshoklarga qaraganda ancha mustahkam bo'ladi. Misol qilib AG-4V va DSV markali materiallarni keltirish mumkin. Ulardan kuch uzatuvchi elektrotexnik detallar, mashinasozlik detallari (zolotniklar, nasoslarning zichlagichlari va boshqalar) tayyorlanadi. Shu turdagi yana boshqa markadagi materiallardan avtomobil kuzovlari, lodkalar, priborlarning korpuslari va boshqalar tayyorlanadi.

Tolalari tartibli joylashtirilgan shisha tolali PKMlar. Bu turdagi materiallarda uzun tolalar ma'lum tartibda joylashtirilgan va bog'lovchi bilan ishonchli birikkan bo'ladi. Shisha tolali materiallar $60...200^{\circ}\text{S}$ gacha temperaturada, tropik sharoitlarda ishlay olib katta inertsiya yuklanishlarga chidamli bo'ladi. Ikki yil davomida eskirish ko'rsatkichi $K_e = 0.54...0.7$ ga tengligi aniqlangan. Ularning mexanik va elektrik xossalari yorug'likning ionlashtiruvchi ta'siri kam. Ulardan yuqori aniqlikdagi detallar tayyorlanadi.

Stekloplastiklarni an'anaviy konstruksion materiallar (po'latlar va rangli metallar) o'rniga ishlatish natijasida konstruksiya massasini 15...40% ga kamatirish imkonini beradi, tayyorlashdagi mexnat sarfi 1.3...3 marta kamayadi, kamyob rangli metallarva zangbardosh po'latlar o'rnini almashtiradi, konstruksiyani agressiv muhitlardagi ishonchiligi va uzoq muddat ishlay olish

qobiliyatini oshiradi, maxsus xossalarga (radio, hamda yorug'lik shaffofligi, qiyin yonuvchi va boshqalar) ega bo'lishini ta'minlaydi.



2-rasm. Shisha tolali materiallarga ba'zi misollar.

Shisha tolalari


Shisha tollari ancha kichik zichlikka ega bo'lish bilan birga issiqbardoshlilik, kimyoviy turg'unlik va mustahkamlik, past issiqlik o'tkazuvchanlik va boshqa xossalarga ega bo'ladi. Ular olovda yonmaydi, biologik ta'sirlarga chidamli bo'ladi.

Shisha tolalarining ikki xil turi mavjud: uzluksiz va shtapelli. Birinchisiga cheksiz katta uzunligi, to'g'ri chiziqchilik va ipdagi tolalarning parallel joylanganligi xos bo'lsa, ikkinchisiga – kaltaligi, egriligi va fazoviy tartibsiz joylashganligi xosdir.

Odatda shisha tolalari dumaloq tsilindr shaklida bo'ladi, boshqalari esa, ichi bo'sh, murakkab shaklli bo'ladi. Murakkab shakllilarga kesim yuzasi uchburchak, kvadrat, oltiburchak shakllarda, tolasi lentasimon va yuzasi tekis yoki notekis shaklda bo'lishi mumkin.

Olish texnologiyasi. Uzluksiz shisha tolalilar yo'g'on tolani bir yoki ikki bosqichda cho'zish orqali yoki shisha shtapelidan olinadi. 3-rasm.


Shisha tarkibi olish usulini, shakllantirish sharoitini, qo'llanilish sohasini belgilaydi. Texnik soxalar uchun shisha tolalari turli tarkibli shisha oynalaridan yuqori mustahkamlikdagi yuqori modulli shisha tolalari, past va yuqori dielektrik o'tkazuvchanlikdagi shisha tolalari, yarim o'tkazuvchi va boshqalar maxsus tarkibli shishalardan olinadi.



1 — glina; 2 — izvestnyak; 3 — ugol'; 4 — kvartsevyi pesok; 5 — flyuorit; 6 — kislota; 7 — avtomaticheskie dozatory; 8 — smesitel'; 9, 10 — bunkera; 11 — shnekovyy pitatel'; 12 — vanna; 13 — sektsiya prigotovleniya zamaslivatelya (shlihty); 14 — platinovyye fil'eryy (bushingi) s elektronagrevom i avtomaticheskim upravleniem; 15 — zamaslivatel'; 16 — vysokoskorostnoye namotochnoye ustroystvo; 17, 27 — postyy kontrolya i vzheshivaniya; 18 — kamera dlya konditsionirovaniya volokna; 19 — krutil'nyye ma shiny; 20 — uchastok otdelki i upakovki pryaji; 21 — uchastok termoobrabotki; 22 — shpulyarniki; 23 — namotochnaya mashina dlya rovinga; 24 — rezal'naya mashina; 25 — roving;

26 — rezanoє volokno (shtapel’); 28 — uchastok upakovki; 29 — uchastok otgruzki produktzii

Risunok 3 - Sxema odnostadiynogo polucheniya steklovolokna



1 — kvartsevye kristally, postavlyаемые frantsuzskoy firmoy «Kvarts e slis»; 2 — vakuumnaya plavil'naya pech'; 3 — kvartsevye shtabiki diametrom 4,4 mm; 4 — sektsiya formovaniya pryaji s plavleniem shtabikov v propanokislorodnom plameni; 5 — sektsiya kalibrovaniya; 6 — priemnaya pakovka niti

Risunok 4 - Sxema texnologicheskix protsessov polucheniya kvartsevyykh shtabikov (a), pryaji, rovnitsy, tkaney i matov (b)

Stekloplastiklarni an'anaviy konstruksion materiallar (po'latlar va rangli metallar) o'niga ishlatish natijasida konstruksiya massasini 15...40% ga kamatirish imkonini beradi, tayyorlashdagi mexnat sarfi 1.3...3 marta kamayadi, kamyob rangli metallarva zangbardosh po'latlar o'mini almashtiradi, konstruksiyani agressiv muhitlardagi ishonchligi va uzoq muddat ishlay olish qobiliyatini oshiradi, maxsus xossalarga (radio, hamda yorug'lik shaffofligi, qiyin yonuvchi va boshqalar) ega bo'lishini ta'minlaydi.

Polimerlarni boshqa qo'shimchalar bilan birgalikda turli xil tolalarga aralashtirilsa va bu aralashtirishni maxsus usullarda olib borilsa tola bilan mustahkamlangan yoki kuchaytirilgan (TK) yoki boshqacha qilib aytganda «armirlangan» PKM larni hosil qilish mumkin. Ularni qisqacha TPKM deb belgilaymiz. TPKMlar juda muhim xossalarga ega. Ular avvalo oson tayyorlanadi, engil, mustahkam va korroziyaga chidamlidir. Shuning uchun ulardan tayyorlanadigan buyumlar doirasi juda keng. Masalan: kosmik kemalar va erning sun'iy yo'ldoshlarini yaratishda ularning yuqori mustahkamligi, engilligi muhim bo'lsa, korroziyaga chidamliligi esa ularni suv kemalarini qoplash uchun, kimyoviy barqarorligi esa kislotalar saqlanadigan idishlar yasashda qo'l keladi.


Nima uchun TPKMlar shunchalik afzal xossalarga ega? Chunki kuchaytiruvchi tolalar sifatida (kesilgan yoki uzun tola ko'rinishida) shisha, grafit, alyuminiy, uglerod, bor va berilliy tolalari qo'llaniladi. Agar bu tolalarning o'rniga aromatik poliamid tolasi ishlatilsa PKM ning vaznini yana 50% ga engillashtirish mumkin. Kuchaytirish uchun sisal, asbest kabi tabiiy mineral tolalar ham qo'llaniladi. Tolalarni tanlash albatta yasaladigan buyumga qo'yiladigan talablar bilan belgilanadi, lekin hozirgacha ular ichida eng ko'p ishlatiladigani shisha tolalardir. Chunki ularning termik kengayish koeffitsienti kichik. Harorat o'zgarishi bilan o'lchamlari deyarli o'zgarmaydi, cho'zishga qarshiligi katta, yonmaydi, kimyoviy barqaror va arzon. Boshqa tolalar esa kerakli maxsus xossalarni yaratishda ishlatiladi.

TPKMlar tola bilan polimer bog'lovchini aralashtirib bosim va harorat ostida qotirish yo'li bilan olinadi. Kuchaytiruvchi qo'shimchalar kaltalangan tolalar, uzun iplar yoki xatto matolar ko'rinishida ham bo'lishi mumkin. Polimer bog'lovchilar sifatida asosan poliefirlar, epoksidlar, fenollar, silikonlar, melaminlar, vinil hosilali polimerlar va poliamidlar bo'lishi mumkin. Ular ichida eng qulay poliefirlardir, chunki ular arzon. Yuqori termik barqarorlik talab qilinsa fenol formaldegid polimerlar ishlatiladi. Epoksidlarni qo'llaganda esa eng yuqori mexanik ko'rsatgichlarga erishish mumkin. Silikon polimerlarni qo'llash termik barqaror materiallar yaratish imkoniyatini beradi.

Xozirgi kunda TPKMlarni olishda bir necha usullar mavjud: Ular ichida eng ko'p tarqalganlari quyidagilar:

1. Matolarni ustma-ust taxlash usuli:
2. Tolalar bilan qoplash usuli:
3. Purkash usuli:
4. Boshqa usullar.


1. MATOLARNI USTMA-UST TAXLASH USULI. Bu usul eng sodda usul bo'lib atigi bir necha bosqichdan iborat. 1-bosqichda qoplanadigan shaklga tayyor material yopishmasligi uchun polivinil spirti asosida tayyorlangan adgezion surkovchi yoki sikilon moyi yoki parafin surkalib yupqa qatlam hosil qilinadi. So'ng shakl polimer qatlami bilan qoplanadi va uning ustiga shisha yoki boshqa xil mato qoplanadi. Bu mato o'z navbatida polimerning boshqa qavati bilan qoplanadi va yana mato bilan berkitiladi. Bu jarayon bir necha bor takrorlanib kerakli qalinlik hosil bo'ladi. Qavatlar orasida havo qolmasligi va zichlashtirish uchun ustidan g'ildiraklar yurgazilib turiladi. Hosil qilingan sistema uy harorati yoki isitish yo'li bilan qotiriladi va shakldan ajratilib oxirgi ishlov beriladi. (7-rasm).



7-rasm. Matolarni usta-ust taxlab TPKM olish.

Bu usul yordamida taxtalar, avtomobil kuzovlari, kemalar korpuslari, quvurlar va binolar qismlarigacha olish mumkin.

2. TOLALAR BILAN QOPLASH USULLARI. Bu usul yuqori bosimga bardosh beradigan tsilindrlar, kimyoviy moddalar saqlaydigan tsisternalar, raketaning korpusini tayyorlashda keng qo'llaniladi. Bu usulning mohiyati uzluksiz yo'g'on ipni yoki yigirilgan tasmalarni saqich va qotiruvchili tog'aralarga botirib, ortiqchasini tashlab kerakli shaklda o'rab yuqori haroratda qotirishdan iborat. Tolaning tortilish darajasi, o'rash alpozlari tayyor buyumning xossasiga bevosita va kuchli ta'sir qiladi. (8-rasm).




8-rasm. Saqichlangan tolani o'rash yo'li bilan buyum tayyorlash jarayonining chizmasi.

1-ta'minlovchi g'altak. 2-Uzluksiz ip. 3-Tolani saqichga botirish joyi. 4-Tola o'raladigan shakl. 5-TPKM.

1. **PURKASH USULI.** Bu usulda uzluksiz emas, balki kaltashtirilgan tola yoki iplar ishlatiladi. Polimer, saqich va qotiruvchilardan hosil qilingan suyuq aralashma purkovchilar yordamida kerakli buyumni hosil qilish uchun tayyorlangan shakl yuzasiga purkaladi va etarli qalinlik hosil bo'lgandan keyin TPKM shakl yuzasidan tushirib olinadi.


2.



9-rasm. Purkash usuli chizmasi

- 1- Qolip
- 2- Tola va smoladan iborat qatlam
- 3- Kesilgan tola oqimi
- 4- Uzun tola
- 5- Smola
- 6- Qotiruvchi
- 7- Tolani kesib beruvchi moslama
- 8- Smolaning oqimi

4. **BOSHQA USULLAR.** Yuqorida qayd etilgan usullardan boshqachalari xam mavjud. Masalan: ko'p qavatli qatlamlardan iborat. Turli qalinlikdagi PKMlar shular jumlasidandir. Bu usulda g'altaklardan berilib turilgan yigirilgan tasmani har bir qavati alohida-alohida saqich va qotiruvchiga botirilib, so'ng bir-biriga juvali moslamalar yordamida zichlashtirilib, isitib qotiriladi va kerakli qalinlikdagi yarim maxsulot olib undan turli buyumlar yasash mumkin (10-rasm).



10-rasm.
qavatli PKM
chizmasi.

Uzluksiz ko'p
hosil qilish

1-ta'minlovchi g'altaklar. 2-shisha matolar. 3-saqich va qotiruvchi solingan tog'ara. 4-uzluksiz ko'p qavatli material.

Yana boshqa usulda kesilgan tolalar, saqich va qotiruvchidan iborat aralashmadan bevosita zichlash usuli bilan yoki bosim ostida quyish yoki ekstruziya yo'li bilan ham termoplast polimerlar asosida PKM olish mumkin.

Adgezion mustaxkamlikni o'rganish uchun otslaivaniya metodi bo'yicha O'RFA akademigi S.S. Negmatovym [2] tomonidan yaratilgan maxsus universal qurilmadan foydalandik. 2.1 rasmda qoplamali polimer plyonkadan ustunni oqartirish uslubida qoplamalarning adgezion xossalari aniqlash uchun yaratilgan qurilmaning universal sxemasi berilgan. Bu qurilmada adgeziyani normal bosimda xam, chuqur vakuumda xam aniqlash mumkin. Bundan tashqari u o'rganilayotgan qoplama adgeziyaning elektr tabiatini xam aniqlash mumkin. Qurilma mexanik qism vakuum yaratuvchili vakuumli kameradan va vakuumli kameraga gaz kirituvchi gaz baloni, bundan tashqari o'lchovchi 44 qurilmalardan tashkil topgan. Vakuumli kamera germetik bo'lishi uchun qisuvchi va ftoroplastli uzuklar to'plamidan foydalaniluvchi salnik ishlab chiqilgan. Kameradagi vakuum diffuziyali vakuum-nasos yordamida yaratiladi va VIT-3 vakuumometr yordamida o'lchanadi. Vakuumning pulsatsiyasini tekislash qopqon va forbalonni qo'llash yo'li bilan ta'minlanadi. SHunday qilib, ish kamerasida vakuumning talab qilingan o'lchamini yaratish mumkin. Adgezion mustaxkamlikni aniqlash uchun qoplamali namuna qurilmaning ish roliklariga quyidagi tartibda o'rnatiladi. Qoplamali metal folga (zar qog'oz) ning bir uchi vedomy rolikka, boshqa uchi boshqaruvchi rolikka, polimer qoplama (plyonka) esa aloxida boshqa vedomy rolikka qotiriladi. SHundan so'ng, agar talab qilinsa, vakuum yaratiladi, folgani qoplamadan oqartirish bajariladi. Oqartirish vedomy va boshqaruvchi roliklarni aylantirish yordamida bajariladi. Boshqaruvchi rolik aylantirish xarakatini elektrodvigatel sistemasi, tezlik qutisi va konus shaklidagi reduktordan oladi. Qoplamadan oqartirishga bo'lgan folga qarshiligining kattaligi tenzodatchiklar maxkamlanadi va kuchlanishdan so'ng ossillograf N-700da yozib olinadi. Uzilish mustaxkamligi va qoplamali plyonkaning tegishli uzaytirilishini aniqlash. Kompozitsion va polimer qoplamalarning sifat ko'rsatkichlarining asosiylaridan biri qoplamali plyonkaning mustaxkamlik xossalari bo'lib xisoblanadi. Qoplamali plyonkani plastinkadan oson ajratib olish uchun oxirgi qavat taxminan kremniyorgani suyuqlik, masalan, F9 laki (TU MXP 2272-5) yoki 4-6 mkm qalinligidagi ftoroplast suspenziyasi bilan qoplanadi. YOki bo'lmasa, temir plastinkalar ustki qismi atseton yoki boshqa organik moddada yog'sizlantirilgan alyumin folgaga o'raladi. So'ngra folga yuzasi talk yoki grafit bilan sinchklab artiladi. Bunday usulda tayyorlangan plastinkaga polimer material kiritiladi va qoplama olingandan so'ng plastina va folga olib tashlanadi. Qoplamali polimer plyonka imkonga qarab bir xil qalinlikda bo'lishi mumkin. SHtamp pichog'i

yordamida undan ikki tomonli kurak shaklidagi eni 5-7mm, uzunligi 20-46mm va uzilish kengligi 2-3mm bo'lgan namunalar olinadi. Ba'zida uzunligi 20-50mm, va 45 uzilish kengligi 6-15mm bo'lgan namunalar xam ajralib turadi. Namunalar ishlab chiqarish vaqtida yorilib ketmasligi uchun plyonkalar va kesuvchi pichoqlar kesishdan oldin 60-80° darajali xaroratda, 5-10 minut davomida qizdiriladi. Qoplamali plyonkadan olingan namunalar shu usul bilan tekshirishga tayyorlanadi [64]. Qoplamali plyonkaning tayyorlangan namunasi, uning mustaxkamlik xossalarini aniqlash uchun uzilish mashinalarida va kuchlanishning tezligi aniq bo'lgan dinamometrlarda aniqlanadi. Qoplama plyonkalarining mustaxkamlik xossalari ZM-20, RMI-5, SM-10, SHoppening GR-3 mashinalari, Polan dinamometri va VNIIAK tomonidan ishlab chiqilgan asbobda tekshiriladi. Katta issiqlik diapazoni va isitish tezligida plyonkaning mustaxkamlik xossasi NIKIMP tomonidan ishlab chiqilgan MRS-200, MRS-500, UMP-0,05 va UMP-5T tipidagi mashinalarda aniqlanadi. Bundan tashqari bu uchun "Instron" (AQSH), "ToioSeyki" (Yaponiya) firmalarida ishlab chiqarilgan universal mashinalar xam qo'llaniladi. Biz plyonkaning mustaxkamlik xossasini URM-05 mashinasida aniqladik. Quyidagi formula bo'yicha uzilish kuchlanishini o'rtacha arifmetik qiymatini aniqladik: (1.1) Bu erda $P=R/b*\delta$; kgs/sm²; R- uzilish, kuchlanishi, kg; b va δ -namunaning tekshiruvgcha bo'lgan eni va qalinligi, sm; p - tajribalar soni; Polimer qoplamalarni zarbaga nisbatini aniqlash. Zarbadagi va bukilishdagi mustaxkamlik va polimer qoplamalarning mustaxkamligi ularning sifatini aniqlovchi mavjud xarakterastika bo'lib xisoblanadi. Zarbaga bo'lgan mustaxkamlik polimer qoplamalar ustida yuzaga keladigan deformatsiyalarni aniqlashga asoslangan bo'ladi. Zarbaga bo'lgan mustaxkamlik qoplamalar 46 adgeziyasi va qattiqligi bo'yicha sifatli xulosa chiqarish imkonini beradi. Zarbaga bo'lgan mustaxkamlik asosan U-1, U-2, U-3 asboblarida aniqlanadi. Zarbani o'lchovchi asboblar o'zida staninadan tashkil topgan vertikal koper, unga presslangan sandon, boyka, trubani, yukni yo'naltiruvchi va yukni tushiruvchi asbobdan tashkil topgan bo'ladi. U-1 asbob 1kgs yuk bilan, U-2 asbob esa 2kgs yuk bilan ta'minlangan. Qoplamalarning zarbaga bo'lgan mustaxkamligi biz tomondan U-3 asbobida aniqlandi. [64] Tekshiruv uchun 0,8-0,1 qalinlikdagi va 100x50mm qoplamdagi yupqa plastinka boyka sharigi va sandon o'rtasiga joylanadi. Truba yo'naltiruvchidagi yuk 50sm balandlik oralig'ining istalgan qismiga o'rnatilishi mumkin. Zarbaga bo'lgan mustaxkamlikni aniqlash uchun namunaga asbobning maxsus vositasi yordamida yuk tushiriladi. Tajriba davomida yuk balandligi qoplamada mexanik buzilishlar paydo bo'lgunga qadar oshiriladi. Bunda qoplamaning zarbaga bo'lgan mustaxkamligi ilib qo'yilgan yuk tushish balandligi qoplamada mexanik buzilishlar paydo bo'lgunga qadar bo'lgan balandligi (sm) xisobida baxolanadi. Polimer qoplamalar qattiqligini aniqlash.

